

## O'ZBEK TILI FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARIDAN FOYDALANISH

Boyboboyeva Muattar Shokirjonovna

Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani 18-sonli umumiy o'rta ta'lif maktabi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7311497>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek tili fanini o'qitish jarayonida interfaol usullardan foydalanish to'g'risida batafsil yoritilgan. Turli ko'rinishdagi zamonaviy metodlar va interfaol usullardan namunalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lif, pedagog, intefao, innovatsion texnologiya, charxpalak, taqdimot usuli, imkoniyat, metod, texnologiya.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ

**Аннотация.** В данной статье подробно описывается использование интерактивных методов в процессе обучения узбекскому языку. Приведены примеры различных современных методов и интерактивных методов.

**Ключевые слова:** образование, педагог, интерактив, инновационная технология, charxpalak, метод презентации, возможность, метод, технология.

## USE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING UZBEK LANGUAGE

**Abstract.** This article describes in detail the use of interactive methods in the process of teaching the Uzbek language. Examples of various modern methods and interactive methods are given.

**Key words:** education, pedagogue, interactive, innovative technology, charxpalak, presentation method, opportunity, method, technology.

Metod aslida yunoncha, "metodos" so'zidan olingan bo'lib, „bilish va tadqiqot yo 'li“, „nazariya“, „ta'limot“ kabi m a'nolam i bildiradi. M etodika (yurt, „methodike“) biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish m etodlarining, usullarining yig'indisi yoki o 'qitish usullari haqidagi ta 'limot2 — ta 'lim berish m etodlari, yo'llari va vositalari haqidagi fandir. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining predmeti o'quvchilarga o'zbek tilini o'rgatish yo'llari va vositalari, ona tilini egallash, ya'ni nutqni, o'qish va yozishni, grammatika va imloni o'zlashtirib olish to'g'risidagi ilmdir. Metodika mifik oldiga qo'yilgan ta 'lim va tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqib, ona tilini o'rgatishning vazifalarini va m azm unini belgilaydi, ta'lim-tarbiya berish jarayonini tekshiradi, shu jarayonning qonuniyatlarini va ta'lim berish usullarining ilmiy asoslangan tizimini belgilaydi. Metodika fani quyidagi masalalarni o'rganadi:

1. O'qitishning vazifalari va mazm unini aniqlaydi. Nimani o'qitish kerak? savoliga javob beradi, ya'ni boshlang'ich sinflar ona tili kursining dasturlarini, ta 'lim mazmunini belgilab beradi, o'quvchilar uchun darsliklar va qo'llanm alar yaratib, ularni takomillashtirib, sam aradorligi va muvofiqligini doimiy nazorat qilib boradi.

2. O'qitish metodlari, tamoyillari, usullari, dars va uning turlarini, o'quvchilar amaliy ishlari - mashqlar va yozma ishlamning izchil tizimini ishlab chiqadi, ya'ni „Q anday o'qitish kerak?“ savoliga javob tayyorlab beradi.

3. O'quvchilarga ona tilidan bilim berish va ko'nikm a hosil qilishda ilmiy nuqtai nazardan

eng foydali shart-sharoitlar haqidagi masalalarini hal qiladi, ya'ni „Nega xuddi mana shunday o'qitish kerak?“ savoliga javob tayyorlaydi. Eng foydali materiallarni, m etodlarni o'rganadi, tanlangan m etodlarni asoslaydi, tavsiyalarni eksperimental tekshiradi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning jahon ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o'z navbatida o'quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o'zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko'pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liq.

Har bir darsni o'ziga xos usul asosida o'tish, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg'otish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o'z darslarida qo'llasa, albatta ijobiy natijaga erishadi. Bugungi kun o'qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta'lim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta'minlash, mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilim va hayotiy ko'nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o'tilgan mashg'ulotlarda amalga oshirish mumkin.

Innovatsion texnologiya – ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo'llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari. Uning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida o'qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg'ulotga aylanadi.

Ko'p yillar davomida an'anaviy dars o'tish ta'limning asosiy shakllaridan biri bo'lib keldi. An'anaviy darsda o'qituvchi faol, o'quvchi esa passiv ishtirokchiga aylanadi. Bu esa o'quvchining mustaqil fikrlashi, izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bunday darslar yaxshi samara bermaydi. Bugungi davr talabi dars jarayonini noan'anaviy tarzda mazmunli tashkil etish, o'quvchilarining qiziqishini orttirib, ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlashni taqozo etadi.

Ona tili o'qitish metodikasi o'zbek tilining m a'lum qismini nazariy ^gallahshni nazarda tutadi, shuning uchun ham fonetika va fonologiya, leksikologiya va frazeologiya, so 'z yasalishi va etimologiya, grammatika — morfologiya va sintaksis, stilistika, shuningdek, orfoepiya, grafika, orfografiya kabi fanlar ona tili metodikasining muhim asosi hisoblanadi. Fonetika va fonologiya grafika bilan bog'liq holda savod o'rgatish metodikasini ishslashda, elem entar o'qish ko'nikmasini shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Fonetika va grafikaning fonetik tamoyil asosida yoziladigan imlo qoidalarini o'zlashtirishda ham ahamiyati katta. Husnixat metodikasi grafika nazariyasiga tayanadi. Leksikologiyani bilish muktabda lug'at ishi (m a'nodosh va zid m a'noli so'zlarga oid xilma-xil mashqlar o'tkazish, ko'p m a'noli so'zlar, ularning m a'no bo'yoqlari ustida ishslash) ni to 'g 'ri tashkil etish uchun juda muhimdir.

Noan'anaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlar muhim bo'g'in hisoblanadi. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg'ulot turidir. Bunda o'qituvchi va o'quvchi o'zaro hamkorlikda ishlaydi. Fikrlar to'qnashuvi yuzaga keladi. O'quvchining erkin fikrlash jarayoni yangi pog'onaga ko'tariladi. O'qituvchi shu tarzda o'quvchilarni faollashtiradi, o'zlashtirishi past o'quvchilar dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi.

Ta'lif uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, uning sifati darsda qo'llanilgan metodlarga bog'liq. Darsning mazmunli o'tishi, unda qanday metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani o'qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilaydi. Darsda metodlar to'g'ri tanlansa, maqsadga tez va oson erishiladi. Interfaol metodlarni tanlash har bir darsning didaktik maqsadidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bu esa o'qituvchidan har doim bir xil usulda emas, dars mavzusiga mos metodlar asosida dars o'tishni talab etadi. Buning uchun o'qituvchi doimo o'z ustida ishlashi, bilim va kasbiy malakasini oshirib borishi, ilm-fan yangiliklaridan xabardor bo'lishi va o'z faoliyatida ulardan samarali foydalanishi lozim. O'qituvchi bir vaqtning o'zida ijodkor, aktyor va fan bilimdoni bo'lsa, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda darsning mazmuni, o'quvchilarga yetkazish usul va shakllari, vositalarini oldindan belgilab, mavzuga mos metodni tanlasagina dars samaradorligi yuqori bo'ladi.

Ma'lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mayjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergen. Keng qo'llaniladigan usullar – "Klaster", "Aqliy hujum", "Davom ettir", "Taqdimot", "Blits-so'rov", "Muammoli vaziyat" kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida "Sinkveyn", "Teskari test", "Aql charxi" metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida "Insert", "Pinbord", "Zinama-zina", "Bumerang" texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida "Venn diagrammasi", "Baliq skeleti", "Nima uchun?", "Qanday?", "Konseptual jadval", "Nilufar guli" kabi grafik tashkil etuvchilar hamda "Tushunchalar tahlili", "T-jadval", "Rezyume", "Kungaboqar", "Charxpalak" metodlarini, uyga vazifa berishda "FSMU", "Klaster", "BBXB" metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.

Ona tili va adabiyot darslarida ham yuqorida sanab o'tilgan interfaol metodlardan tashqari "Ha... yo'q", "Ta'rif egasini top", "Men kimman?", "Domino" kabi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin vaqtida o'quvchilar o'zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o'quvchida ishonch, qat'iyat paydo bo'ladi. Munozaraga kirishishni o'rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim.

So'zning tarkibi va so'z yasalishini o'rganishda metodikaga so'z yasalishi, etimologiya, grammatika asos vazifasini bajaradi. Morfologiya va sintaksis mavhum til hodisalarini shakllantirishni, til qurilishi haqida tushuncha hosil qilishni to'g'ri tashkil etishga, grammatic tushunchalardan to'g'ri yozuv masalalarini hal qilish uchun foydalanishga imkon beradi. Grammatikaning atikadan bilimi bo'lмаган o'quvchilarda imlo va punktuatsiyadan ko'nigmada va m'alakalami shakllantirish mumkin emas. Grammatika o'quvchilar nutqini o'stirishda muhim o'ren tutadi, chunki grammatika so'z shakllarini to'g'ri tuzish, so'z birikmasi tarkibidagi so'zlarni o'zaro to'g'ri bog'lash va gapni to'g'ri tuzishga o'rgatadi. To'g'ri yozuvga o'rgatish metodikasining

rivojlanishida o'zbek tili imlosi nazariyasini hisobga olish talab etiladi. O'qish metodikasi adabiyot nazariyasiga asoslanadi, chunki o'quvchilar badiiy asarni amaliy tarzda tahlil qiladilar, ularga adabiyotshunoslikdan nazariy m'a'lumot berilmaydi, amm o'm etodika adabiy asarning yaratilish qonuniyatlarini, ularning o'quvchilarga ta'sirini, ayniqsa, adabiyotshunoslikka oid mavzulardan asarning g'oyaviy mazmuni, uning mavzusi va sujeti, kompozitsiyasi, janri, tasviriy vositalarini hisobga olishi zarur.

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asaosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda ishlataladigan texnologiya o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh tabiatni va sharoitga qarab tanlanadi.

“Charxpalak”. Ushbu texnologiya o'quvchilarni o'tilgan mavzularni esga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berish va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan. Bu usulni qo'llashdan maqsad o'quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishslash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatishdir. Ushbu texnologiya ona tili va adabiyot darslarining boshlanishi va oxirida yoki biron-bir bo'lim tugallanganda o'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash uchun mo'ljallangan.

“Charxpalak” texnologiyasi quyidagicha amalga oshiriladi:

- o'quvchilar sharoitga qarab guruhlarga ajratiladi;
- tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi;
- belgilangan vaqt ichida guruhlar tarqatmadagi topshiriqni bajarib, uning o'ng burchagiga guruh raqamini, chap burchagiga esa o'zining ramziy belgisini qo'yib ushbu tarqatmani keying guruhgam “charxpalak aylanmasi” yo'nalihsida almashtiradilar;
- boshqa guruh a'zolari ham tarqatmadagi vazifani bajaradilar va o'zgartirishlar kiritadilar;
- materialning oxirgi almashishidan so'ng har bir guruh o'zi ilk bor to'ldirgan tarqatmani o'z ramziy belgisi asosida tanlab oladi;
- o'qituvchi tarqatma materialda berilgan vazifalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javobni belgilaydi yoki tarqatma materialdagи vazifalar ekranda yoritilib, to'g'ri javob aytib o'tiladi;
- har bir o'quvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblaridagi farqlarni aniqlaydilar va o'zlarini baholaydilar.

“Taqdimot” usuli. Ushbu usulda ma'lum bir mavzu yoki bo'limlar yakunida o'tkaziladigan takrorlash darslarini tashkil qilish mumkin. Bunda o'quvchilar yakka tartibda, juftlikda yoki guruhlarda ishlab, berilgan mavzu bo'yicha mustaqil izlanib, materiallar to'playdi, ularni saralaydi, asosiyalarini tanlab olib taqdimot qiladi. Masalan “Alisher Navoiy hayoti va ijodi” mavzusida taqdimot darsi o'tkazilganda o'quvchilarni avvaldan guruhlarga bo'lib, quyidagi yo'nalihslar bo'yicha taqdimot qilish topshiriladi:

1-guruh. Alisher Navoiy hayoti va faoliyatini xronologik jadval asosida tushuntiring.

2-guruh. Alisher Navoiy ijodini “Klaster” usuli asosida tushuntiring.

3-guruh. Alisher Navoiy lirikasini “Kungabooqar” usuli asosida tushuntiring.

4-guruh. Alisher Navoiyning “Xamsa” asarini konseptual jadval asosida tushuntiring.

Har bir guruh berilgan yo’nalishlar bo’yicha darslik va qo’shimcha adabiyotlardan foydalanib ma’lumot to’playdilar va slayd yoki chizmalar orqali taqdimot qiladilar.

“Taqdimot” darslari orqali o’quvchilarda quyidagi ko’nikmalarni shakllantirishga erishish mumkin:

- o’z fikrini og’zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qilish;

- axborot manbalaridan foydalana olish, zarur ma’lumotlarni izlab topish, tahlil qilish, saralash orqali ma’lumotlar bazasini yarata olish;

Ona tili o’qitish tamoyillari quyidagilar.

1. Til materialiga, nutq organlarining o’sishiga, nutq malakalarining to‘g’ri rivojlanishiga e’tibor berish tamoyili. N utq, til qonuniyatlariga, oz bo’lsa-da, e ’tibor bermaslik amaliy nutq faoliyatini egallahsga salbiy ta ’sir ko’rsatadi. Masalan, fonetik ko’nikmalarga yetarli e ’tibor berilmasa, imloviy savodxonlikka putur yetadi. Bu ta ’lim tamoyili tildan olib boriladigan m ashg’ulotlarda eshituv va ko’rvu ko’rsatmaliligin ta ’minlashni va nutq organlarini m ashq qildirishni (gapirib berish, ifodali o ‘qishni, ichida gapirishni) talab etadi.

2. Til ma’nolarini (leksik, gram m atik, morfemik, sintaktik m a’nolarini) tushunish tamoyili. So’zni, m orfemani, so’z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi m a’lum voqeahodisalar o’rtasidagi bog’lanishni aniqlash demakdir. Til m a’nolarini tushunish tamoyiliga amal qilishning sharti tilning ham m a tom onlarini, tilga oid barcha fanlar (grammatika, leksika, fonetika, orfografiya, uslubiyat)ni o ‘zaro bog’langan holda o’rganish hisoblanadi. Masalan, morfologiyanı sintaksisiga tayangan holdagina o’rganish, o’zlashtirish mumkin. Sintaksisni o’rganishda esa morfologiya suyaniladi, orfografiya fonetika, grammatica, so’z yasalishiga suyanadi va hokazo. So’zni morfemik tahlil qilish uning m a’nosini tushunishga yordam beradi. Tilning ham m a tomonlari birbiri bilan o’zaro bog’langan bo’lib, o’qitishda buni albatta hisobga olish kerak.

3. Tilga sezgirlikni o’stirish tamoyili. Til — juda murakkab hodisa, uning tuzilishini, izchil tizimini fahmlab olmay turib, sal bo’lsa-da, uning qonuniyatlarini, o’xshashliklarini o’zlashtirmay turib, uni yodda saqlab bo’lmaydi. Bola gaplashish, o’qish, eshitish bilan til materiallarini yig’adi, uning qonunlarini o’zlashtiradi. Natijada kishida tilga sezgirlik (til hodisalarini tushunish) xususiyati shakllanadi.

4. Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili. Bu tamoyil til hodisalarini tushunm ay turib savodli yozish, nutq madaniyati vositalarining xabar berish vazifasini tushunish bilan bir qatorda, uning ifodaliligin (uslubga oid) tushunishni, m azm uninigina emas, balki so’z va nutq birliklarining, tilning boshqa badiiy-tasviriy vositalarining hissiy bo’yoq dorligini ham tushunishni ko’zda tutadi. Bu tamoyilga amal qilish uchun, birinchi navbatda, badiiy adabiyotlardan, shuningdek, tilning uslubiy xususiyatlari aniq ifodalangan boshqa matnlardan foydalanish talab etiladi. Bu esa m atn m azm uni va uning o’ziga xos „noziklik“larini ham anglab yetishga yordam beradi.

5. Og’zaki nutqni yozma nutqdan oldin o’zlashtirish tamoyili. Bu tamoyil ham kishi nutqining rivojlanishiga ta ’sir etadi va til o’qitish metodikasini tuzishda xizmat qiladi. M etodika tamoyillari, didaktika tamoyillari kabi, o’qituvchi bilan o’quvchining maqsadga muvofiq

faoliyatini belgilashga, ularning birgalikdagi ishlarida qulay yo'nalishni tanlashga yordam beradi, metodikaning fan sifatida nazariy asoslash elem entlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. Rafiyev A. , G'ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T. , “Sharq”, 2013.
2. Erkaboyeva N. Q. Adabiyot fanidan savol-javoblar to‘plami. T. “Navro’z”, 2018.
3. Golish L. V. , Fayzullayeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T. , “Iqtisodiyot”, 2012.
4. “Umumta‘lim fanlari metodikasi” jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018. 5. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 1-12 sonlar, 2018.